

*Jumayeva Shakhlo Suyunovna**Teacher of the non-state educational institution of the University
of Economics and Pedagogy**Ostonova Umida Sharifovna**Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti NTM**Xorijiy tillar fakulteti 1-kurs talabasi*

TA'LIM VA FAN -JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ilm-fan yutuqlari haqida ,yangi texnologiyalar, kashfiyotlar va innovatsiyalarni yuzaga keltirib, jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida yangi yutuqlarga olib keladi. Bu yutuqlardan milliy-ma'naviy tarbiy jarayonida oqilona foydalanish hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etayotganligi borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar : ta'lim, fan, milliy qadriyatlar, tarbiya, ezgulik, yuksak axloqiylik, ziyolilik ,innovatsiya.

Аннотация. В этой статье Научные достижения создают новые технологии, открытия и инновации, приводящие к новым достижениям в социальной, экономической и культурной сферах общества. Утверждается, что рациональное использование этих достижений в процессе национального и духовного воспитания имеет большое значение в настоящее время.

Ключевые слова: образование, наука, национальные ценности, воспитание, доброта, высокая нравственность, интеллект, инновации.

Kirish. Ta'lim va ilm-fan borasida gap ketar ekan, mustaqil O'zbekiston davlatining asoschisi, buyuk davlat va siyosat arbobi, o'zbek xalqining ulug' va ardoqli farzandi, mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning "Yuksak Ma'naviyat – Yengilmas Kuch" asarida ta'lim va ilm-fan sohalariga etibor qaratganlarini alohida ta'kidlash joiz. Xususan, asarda "Ilm-fan va ta'lim – bu davlatimizning kuch-qudratini, xalqimizning farovon hayotini ta'minlaydigan kuchli omillardir" deya ta'riflanadi.[1] Darhaqiqat, zamonaviy jamiyatni rivojlantirishda ta'lim va ilm-fan sohalarining tutgan o'rni beqiyosdir. Bu ikki soha jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik jabhalarida muhim o'rin tutadi. Ta'lim va ilm-fandagi rivojlanish nafaqat insonlarning shahsiy hayotida balki va ko'nikmalar bilan qurollantirib, uning dunyoqarashini kengaytirish bilan birga misilsiz bilim va imkoniyatlar eshigini ochish hamdir desak mubolag'a bo'lmaydi. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, O'zbekiston qadim zamonlardan beri ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalariga katta ahamiyat berib kelayotgan davlat ekanligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo tilshunoslik, tarix, falsafa, xadishshunoslik, fiqh kabi fanlar va kulolchilik, haykaltaroshlik, shishasozlik, naqqoshlik va to'qimachilik kabi kasblar keng rivojlangan.[2] Shu bilan bir qatorda yunon faylassufi Aristotel o'zining "Nikomax axloqi" (Nicomachean Ethics) asarida ta'limga shunday tariff beradi: "Ta'lim – bu insonni yaxshi yashashga tayyorlashdir".[3] Aristotelning ta'lim haqidagi g'oyasi axloqiy hayotning o'ziga xos jihatlari rivojlantirishga qaratilgan. U ta'limni nafaqat ilmiy, balki axloqiy va ruhiy ma'naviyatini oshirish deb tushungan. "Nikomax axloqi"da Aristotel inson hayoti maqsadini baxtga erishish va yaxshi yashash deb belgilaydi talimni esa bu yo'lda yordam beruvchi vosita sifatida ko'rib, odamlarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirish va

yaxshilikka erishish uchun zarur deb hisoblaydi. Shuning uchun ta'lim, Aristotelning fikriga ko'ra, insonni axloqiy va aqliy jihatdan to'liq rivojlantiradigan jarayon hisoblanadi. Ilm-fan esa insoniyatning barcha sohalarida rivojlanishni ta'minlaydigan asosiy manba hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar natijasida yangidan yangi texnologiyalar, innovatsiyalar va kashfiyotlar amalga oshiriladi va tadbqiq etiladi. Bu esa jamiyatning turli jabhalarida jumladan, saonat, qishloq xo'jaligi, tibbiyot, qurilish, ishlab chiqarish va axborot texnologiyalari sohalarida rivojlanishning muhim omiliga aylanadi. Ko'plab olim va tadqiqotchilar bilan bir qatorda amerikalik tadbirkor, muhandis, xayriya faoliyati bilan tanilgan va Microsoft kompaniyasining asoschisi Bill Gates ham zamonaviy jamiyatda ilm-fan va texnologiyaning o'rnini haqida ko'plab fikrlar bildirgan. Uning eng mashhur kitoblaridan biri "The Road Ahead" (1995) va "How to Avoid a Climate Disaster" (2021) bo'lib, unda ilm-fanning jamiyatni rivojlantirishdagi muhim rolini ta'kidlaydi. Quyidagi sitata Bill Gatesning ilm-fan va texnologiyaning jamiyatdagi o'rnini haqidagi fikrini ifodalaydi: "Ilm-fan va texnologiya insoniyatning eng katta muammolarini hal qilishda muhim vosita hisoblanadi. Biz ilm-fan yutuqlaridan foydalanib, sog'liqni saqlash, iqlim o'zgarishi va boshqa global masalalarda sezilarli o'zgarishlar yaratishimiz mumkin." [4] Bu fikr Bill Gatesning o'zining ilm-fan va texnologiya orqali global masalalarni hal qilishga bo'lgan ishtiyoqini va yondashuvini aks ettiradi. U ilm-fanning nafaqat iqtisodiy yuksalish, balki insoniyatning eng dolzarb muammolarini hal qilishdagi muhim vosita ekanligini ta'kidlaydi. Gates o'z kitoblarida texnologiyaning ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirishdagi rolini keng yoritgan.

Natija. Zamonaviy jamiyatda ta'lim va ilm-fan o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ular birgalikda jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik rivojlanishining poydevorini tashkil etadi. O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida rivojlanishi va xalqimizning farovon hayotini ta'minlashdagi ilm-fan va ta'limning roli alohida e'tiborga loyiqdir. Islom Karimovning "Yuksak Ma'naviyat – Yengilmas Kuch" asaridagi ta'lim va ilm-fan haqida aytilgan fikrlar, ayniqsa, mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida ularning ahamiyatini ko'rsatadi. Aristotelning ta'lim haqidagi g'oyasi va Bill Gatesning ilm-fan va texnologiyaning jamiyatdagi roli haqidagi fikrlari, ta'lim va ilm-fan insonlarning axloqiy va aqliy rivojlanishida muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Ilm-fan insoniyatni har tomonlama rivojlantirishga, yangi texnologiyalar va innovatsiyalar yaratishga yordam beradi, bu esa nafaqat iqtisodiy yuksalish, balki global muammolarni hal qilishda ham katta ahamiyatga ega. Zamonaviy jamiyatda ta'lim va ilm-fan sohalarining rivojlanishi orqali nafaqat bilimli va mas'uliyatli shaxslar, balki butun jamiyatning taraqqiyoti uchun zarur asoslar yaratiladi. Bu sohalarida erishilayotgan yutuqlar nafaqat mahalliy darajada, balki global miqyosda ham ijobiy ta'sir ko'rsatib, insoniyatning eng katta muammolarini hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, ta'lim va ilm-fan zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida davom etishi kerak.

Muhokama. Zamonaviy jamiyatda ta'lim va ilm-fan sohalarining ahamiyati oshib bormoqda. Har bir davlat o'zining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotini ta'minlash uchun ilm-fan va ta'limga katta e'tibor qaratadi. O'zbekistonda ham ta'lim va ilm-fan sohalarida mamlakatning rivojlanishida muhim rol o'ynamoqda. Zero, O'zbekiston respublikasi prezidenti Sh.M. Mirziyoyev aytganlaridek, "ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liqdir". Bu fikr o'zining to'liq haqliligini ko'rsatmoqda, chunki ta'lim va ilm-fan nafaqat mamlakat ichidagi, balki global darajadagi rivojlanish jarayonlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Aristotelning ta'limni "insonni yaxshi yashashga tayyorlash" sifatida ta'riflashi, uning ahloqiy va aqliy jihatdan mukammal inson yaratishga qaratilgan yondashuvini aks ettiradi. Bu g'oya ta'limning asosiy maqsadi nafaqat bilim berish, balki insonlarni axloqiy jihatdan ham shakllantirish ekanligini ta'kidlaydi. Aristotelning fikriga ko'ra, ta'lim ijtimoiy muhitda odamlarning qanday yashashini

belgilaydi. Bugungi kunda ham ta'limning jamiyatdagi roli aynan shu ma'noda, ya'ni jamiyatni axloqiy va aqliy jihatdan rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bill Gatesning ilm-fan va texnologiyaning jamiyatni rivojlantirishdagi o'rni haqidagi fikrlarini tahlil qilish, ilm-fan va texnologiyaning dunyo miqyosida insoniyatning katta muammolarini hal qilishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Gatesning "Ilm-fan va texnologiya insoniyatning eng katta muammolarini hal qilishda muhim vosita hisoblanadi" degan fikri ilm-fanning jamiyatdagi ahamiyatini yuksaltiradi. Uning fikriga ko'ra, ilm-fan orqali sog'liqni saqlash, iqlim o'zgarishi va boshqa global muammolarni hal qilish mumkin. Bu, ayniqsa, zamonaviy texnologiyalarning kashfiyotlari va innovatsiyalarining rivojlanishi tufayli amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, ilm-fan va ta'lim sohalaridagi rivojlanish, jamiyatni yanada barqaror va farovon qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ilm-fan yutuqlari yangi texnologiyalar, kashfiyotlar va innovatsiyalarni yuzaga keltirib, jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida yangi yutuqlarga olib keladi. Shuningdek, ilm-fan va ta'lim orqali insonlar nafaqat bilim, balki jamiyatda o'z o'rnini topish, mas'uliyatli va axloqiy shaxs bo'lib yetishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, ilm-fan va ta'lim sohalarining rivojlanishi, davlatlarning global raqobatbardoshligini ham oshiradi. Bunday rivojlanish ta'lim tizimlarining zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilishi, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi. Buning natijasida, mamlakatlar o'rtasida ilmiy-texnologik hamkorlik rivojlanadi va ijtimoiy sohalarida global muammolarni hal qilish uchun hamkorliklar yuzaga keladi.

Xulosa. Xylosa qilib aytganda, ilm-fan va ta'lim zamonaviy jamiyatning rivojlanishining asosi bo'lib, ular jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, har bir davlat o'z ta'lim tizimini takomillashtirish va ilm-fan sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Yuksak ma'naviyat —yengilmas kuch.** I. Karimov. —T.: «Ma'naviyat», 2010
2. **O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.** – 10.01.2025
3. **Nicomachean Ethics.** Aristotile. – Batoche Books. Kitchoner 1999
4. **"How to Avoid a Climate Disaster: The Solutions We Have and the Breakthroughs We Need".** Bill Gates. -- ALFRED A. KNOPF NEW YORK TORONTO 2021